

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ
VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI INSTITUTI
QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI
KAFEDRASI
QISHLOQ XO'JALIGIDA ISHLAB CHIKARISH
IQTISODIYOTI FANIDAN**

Kurs ishi

MAVZU: Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini mohiyati va tashkiliy – iqtisodiy asoslari.

**Bajardi : qishloq xo'jaligida menejment
yo'nalishi 2 - boskich 76 – gurux
talabasi G'anijonov SHoyadbek**

Qabul qildi : _____

Mavzu: Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini mohiyati va tashkiliy – iqtisodiy asoslari.

Reja:

I. Kirish

II.Asosiy qism.

2.1. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining mohiyati va ahamiyati.

2.2. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligi va tahlili.

2.3.Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish yo'llari.

III. Xulosa.

IV.Foydalanilgan adabiyotlar.



“Fermer degani –bu avvalo universal qobiliyatga ega bo’lgan inson, xalqimiz iborasi bilan aytganda, bugun fermerlarga qirq hunar ham oz. U bir vaqtning o’zida ham dehqon, ham agronom, ham chorvador kerak bo’lsa,mexanizator. Tabelchi va iqtisodchi, bankir va buxgalter, ta’minotchi vazifalarini ham bajaradi !”

**I.A.Karimov
O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti**

I.Kirish

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakat qishloq xo'jaligida atroflicha islohotlarni amalga oshirish davri boshlandi. Respublika hukumati mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkchilikning nodavlat shakliga o'tish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, dehqon, fermer xo'jaliklari faoliyatini yo'lga qo'yish kabi masalalarni hal etishga e'tibor berildi. Respublika Parlamenti qishloq xo'jaligida tub burilishlarning hududiy asoslarini yaratadigan qonunlarni qabul qildi. Respublika Prezidentining 1994 yil 21 yanvardagi **«Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»**gi Farmoni, Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 24 martdagi **«CHorvachilikda xususiy lashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»**gi va boshqa qarorlari iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, bozor tamoyillarining erkin ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratish, xo'jaliklarni nodavlat shakllariga aylantirish, mahsuldorligi past chorva fermalarini jamoaga mulk qilib berish yo'li bilan qishloq xo'jaligida islohotlarni yanada chuqurlashtirishga, dehqon va fermer xo'jaliklari, o'rta va kichik biznes ishini yo'lga qo'yishga keng imkoniyatlar ochib berdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab Yurtboshimiz boshchiligida ishlab chiqilgan, chuqur asoslangan agrar siyosat mamlakatimizda yer va suv munosabatlarini shakllantirishda

va qishloq xo‘jaligini isloh etishda muhim omillardan biri sifatida katta rol o‘ynaydi. Mustaqillik yillarida (1991-2012 y.y.) amalga oshirilgan izchil va keng qamrovli islohotlar natijasida iqtisodiyotning agrar sektorida ham tub tarkibiy o‘zgarishlar sodir etildi. Qishloqlarda xo‘jalikning turli shakllari paydo bo‘ldi. Odamlarning mulkka va yerga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgara boshlandi. O‘zbekistonda agrar siyosatining shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi jarayonlari bilan o‘zaro dialektik bog‘liqda amalga oshiriladi. Shu bois mamlakatimizda yangi agrar munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishiga samarali ta’sir etib kelayotgan davlat siyosatini shartli ravishda quyidagi uch bosqichga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

Birinchi bosqich (1991 sentabrdan – 1995 y.y.) mamlakat iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligini barqarorlashtirish maqsadida uni qayta qurish, rejali iqtisodiyotdan tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki ijtimoiy – siyosiy va huquqiy asoslari yaratildi. Shuningdek, O‘zbekistonda g‘alla mustaqilligiga erishish masalasi strategik vazifa sifatida belgilandi. Zarar keltiradigan davlat xo‘jaligini barqarorlashtirish maqsadida uni qayta qurish masalasi ko‘ndalang vazifa etib qo‘yildi.

Ikkinchi bosqich (1996-2000 y.y.). Bu davrga kelib qishloq xo‘jaligi yuritishning zamonaviy mexanizmi yaratila boshlandi. Shuningdek agrar munosabatlarni shakllantirish zamonaviy huquqiy asosi to‘liq yaratildi. Fermerlikni rivojlantirish, fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligi uchun mustahkam huquqiy asoslar va kafolatlarni yaratib beruvchi “**Yer Kodeksi**”, “**Fermer xo‘jaligi**

to‘g‘risida”gi qonun hamda boshqa qonunchilik va meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Uchinchi bosqich (2000-2012 y.y.)Fermerlik harakati kuchayib qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylandi. Fermer esa qishloqda faol islohotchilar sifatida ko‘p yo‘nalishli bilim va tajribaga ega bo‘lish bilan birga o‘z xo‘jaligi va jamiyat oldidagi mas’uliyatni his qilgan holda samarali faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Bulardan tashqari, bu bosqichda fermer xo‘jaliklarga tegishli yerlar optimallashtirildi. Agrar sektorni modernizatsiyalash, erkinlashtirish va takomillashtirish bilan bog‘liq qator davlat dasturlari va boshqa tadbirlar amalga oshirildi. **“O‘zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari**

to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktabrda bergan farmoni Respublikamizda fermer xo‘jaliklari rolining yanada oshib borishida, fermerlik harakati samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri, eng avvalo, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy mustaqilligini taminlash, ular faoliyatining rentabelligini oshirish, fermer va ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarining huquqiy himoyasini ishonchli ta’minlash mexanizmini shakllantirish orqali muttasil o‘sib borayotgan aholining oziq – ovqat xavfsizligini ta’minlashdir.

II.Asosiy qism

2.1. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining mohiyati va ahamiyati.

Iqtisodiy islohotlar va Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish natijasida fermer xo'jaliklari faoliyati rivoj topib, ular qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismini ishlab chiqarmoqda. Ammo, davlat ixtiyoridagi tayyorlov va qayta ishlash korxonalari o'rnida xususiy korxonalar, hissadorlik jamiyatlari paydo bo'lishi, tez buziluvchi qishloq xo'jalik mahsulotlarining son jihatidan ko'p va makon jihatidan tarqoq ishlab chiqaruvchilar tomonidan yetishtirila boshlashi mahsulotlarning ko'p qismi iste'molchilarga yetib borishi jarayonida nobud bo'lishiga olib kelmoqda. Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek, **“Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash texnologiyasi juda orqada qolgani tufayli har yili kartoshka, tomat, karam, lavlagi, sabzi hamda boshqa sabzavot va mevalarning 20-40 foizi isrof bo'lmoqda. Biz, ishlab chiqarish – qayta ishlash – sotish, degan yagona zanjirda ishlab, bu zanjirda band bo'lganlarning manfaatini hisobga olishni o'rganishimiz zarur. Jahon bozorini o'zlashtirish ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'rinishi bilan bog'liq. Bunda mahsulotlarni navlarga ajratish, o'rash, qadoqlash va iste'molchiga o'z vaqtida yetkazib berish nazarda tutilmoqda”**

Bozorlarda savdo qilish sharoitlari doimiy o'zgarib borishi va mevasabzavot, chorvachilik mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazish tizimi talablar darajasida emasligidan, mahsulot ishlab chiqaruvchi va

iste'molchi birday zarar ko'rmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori faoliyatini

rivojlantirish bozorlar bilan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etishni taqozo qilmoqda .

Agrar tarmoqda bozor tamoyillarini bosqichma – bosqich joriy etish yo'nalishida amalga oshirilayotgan agroiqtisodiy islohotlar natijasida bugungi kunda qishloq xo'jaligi tadbirkori deya nom olayotgan – yetishtirilgan mahsulot va mol – mulkka xususiy egalik qilgan holda, yer uchastkalaridan uzoq muddatli ijara asosida foydalanib ishlab chiqarishni yo'lga qo'yuvchi fermer xo'jaliklari ustuvor ravishda rivojlanmoqda

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-avgustda qabul qilingan "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunining 1-bandida **«Fermer xo'jaligi o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yuritish subyektidir»**, - deb belgilab berilgan.

Fermer xo'jaligi uni tuzayotgan a'zolar xohishiga ko'ra ixtiyoriy tashkil etilib, o'z ishlab chiqarishini belgilangan qonunchilik doirasida

yuqori foyda olishni ko`zlab tashkil etadi va ishlab chiqarishning qonun bilan taqiqlanmagan har qanday turi bilan shug`illanishga haqlidir. Fermer xo`jaligining iqtisodiy negizini ishlab chiqarish vositalariga (yer bundan mustasno) va o`z mehnati natijalariga mulkiy egalik tashkil etadi va u tadbirkorlik erkinligi, oila hamda shaxsning o`z moddiy farovonligi yo`lida mehnat qilishiga tayanadi. Mustaqil xo`jalik yuritish subyekt sifatida u mulkchilikning boshqa shakllaridagi xo`jaliklar bilan teng huquqlarga ega ishlab chiqarish birligi hisoblanadi.

**Fermer xo`jaligi** – o`ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi fermer xo`jaligi a`zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqiga ega mustaqil xo`jalik yurituvchi subyekt.

**Fermer xo`jaligining asosiy vazifasi** - Qishloq xo`jalik mahsulotlari yetishtirishni ko`paytirish, aholini iste`mol mollari bilan ta`minlash, moddiy resurslardan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, tejankor texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, atrof-muhit va ekologiyani yaxshilashdan iborat. Hozirgi kunda hukumat tomonidan shu sohani rivojlantirishga asosiy e`tibor berilib, qator qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilinib, amaliyotga keng joriy etilmoqda. Ko`p tarmoqli fermer xo`jaliklari ham huddi shunday tartibda tashkil etiladi. Lekin ko`p tarmoqli fermer xo`jaliklarining fermer xo`jaliklaridan farqi bor. Ya'ni fermer xo`jaliklari faqat o'simlikchilikka ixtisoslashgan bo'lsa, ko'p tarmoqli fermer xo`jaliklari ham o'simlikchilikka ham chorvachilikka

ixtisoslashgan hamda o'zi yetishtirgan mahsulotni qayta ishlash xususiyatiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektdir.

Fermer xo'jaligining oladigan **foydasini miqdorini** oshirish - mavjud yer va suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, ilg'or tajribalar, agrar ilm-fani yutuqlariga tayanish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, tashish va boshqa xizmatlar ko'rsatish sohalariga investitsiyalar jalb qilish evaziga amalga oshiriladi.

Demak, ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi oldiga qo'yilgan asosiy vazifaga aniqlik kiritib oldik. Bundan buyonggi barcha tadbirlarimiz qo'yilgan asosiy maqsadni amalga oshirishga ko'maklashishi kerak bo'ladi.

Endi yana bir muhim masala ***“Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi”*** o'zi qanday tushuncha ekanligiga aniqlik kiritib olishimiz lozim.

Odatda tarmoq so'zi iqtisodiy nuqtai-nazardan yagona bir soha doirasida amal qiladigan ammo, ishlab chiqarishning biron bir tugallangan, alohida mahsulot yetishtirish maqsadlariga bo'ysindirilgan yo'nalishiga aytiladi. Bunda ko'pincha asosiy va qo'yimcha tarmoqlar ajratib olinadi.

Masalan, qishloq xo'jaligi alohida soha hisoblanadigan bo'lsa, uning asosiy tarmoqlari sifatida o'simlikchilik va chorvachilik yo'nalishlari qabul qilingan. Har bir tarmoq o'z o'rnida yana kichik tarmoqlarga bo'linib boradi.

Demak, ***“ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi”*** ning asosiy tarmog'i sifatida – fermer xo'jaligi tashkil etilishi paytida yer uchastkalarini uzoq

muddatli ijaraga olish shartnomasida belgilangan asosiy ixtisoslashuv yo'nalishi qabul qilinishi to'g'ri bo'ladi.

Masalan, paxta-g'allachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklarida asosiy tarmoq bu paxta va g'alla yetishtirish hisoblansa, sabzavotchilik fermer xo'jaliklarida asosiy tarmoq sabzavot mahsulotlari yetishtirish hisoblanadi.

Bunday ajratishni to'g'ri deb hisoblaymiz. Chunki, har bir yo'nalishda fermer xo'jaliklari uchun qonunlarda aniq o'lchamdagi yer maydonlari belgilab qo'yilgan. Bu yer maydonlaridan maqsadli foydalanish ham amaldagi qonunlar bilan tartibga solinadi.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklaridagi **“Asosiy tarmoq”** tushunchasiga aniqlik kiritib oldik. Fermer xo'jaliklarida bu masala - yer uchastkalarining uzoq muddatli ijarasi bilan bevosita bog'liq bo'lmoqda. Endi o'z o'zidan qo'shimcha tarmoqlar masalasi hal bo'ladi.

Ya'ni, fermer xo'jaligining asosiy tarmoqdan boshqa yo'nalishlarda tashkil etgan ishlab chiqarish faoliyati qo'shimcha tarmoq hisoblanadi.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish rag'batlantirish masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 –yil 22 – oktyabrdagi PF – 4478 –sonli farmoniga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishning qo'shimcha tarmog'i **asosiy tarmoq bilan bog'liq holda yoki asosiy tarmoq bilan bog'liq bo'lmagan** sohalarda tashkil etilishi mumkin. Xususan:

- qo'shimcha tarmoq asosiy tarmoq bilan bog'liq holda tashkil etilganda – masalan, fermer xo'jaligi sabzavotchilik yo'nalishida

(asosiy tarmoq) faoliyat yuritsa qo'shimcha tarmoq sifatida sabzavotni qayta ishlash sexlari faoliyatini yo'lga qo'yishi, mahsulotlarni tayyorlash, tashish va saqlash, chorvachilik mahsulotlari yetishtirish kabi sohalarda o'z faoliyatini kengaytirishi nazarda tutiladi;

- qo'shimcha tarmoq asosiy tarmoq bilan bog'liq bo'lmagan sohalarda tashkil etilganda – masalan, fermer xo'jaligi paxta g'allachilik yo'nalishida (asosiy tarmoq) yuritsa qo'shimcha tarmoq sifatida aholiga transport xizmati ko'rsatish, xo'jalik qoshida kichik tikuv sexlarini tashkil etish kabi sohalarda o'z faoliyatini kengaytirishi nazarda tutiladi.

“Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi” – fermer xo'jaligi tashkil etilishi paytida yer uchastkalarini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasida belgilangan asosiy ixtisoslashuv yo'nalishidan boshqa sohalarda ishlab chiqarishni tashkil etib mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan fermer xo'jaliklari hisoblanadi.

Ayni paytda qo'shimcha tarmoq turli yo'nalishlarda bo'lishi mumkin. Eng muhimi mavjud qonunlarimiz bilan taqiqlanmagan va boshqa fermer xo'jaliklariga zarar keltirmaydigan ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) faoliyati bo'lishi kerak.

Fermer xo'jaliklarida qo'shimcha tarmoq asosiy tarmoq bilan bog'liq bo'lmagan sohalarda tashkil etilganda hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda quyidagi yo'nalishlarda faoliyatni yo'lga qo'yish mumkin .

Fermer xo'jaliklarida qo'shimcha tarmoqlarni yo'lga qo'yish - fermer xo'jaliklari asosiy faoliyat yo'nalishi bo'yicha yetishtirilgan qishloq

xo'jaligi mahsulotlariga qo'shimcha ravishda iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi xo'jalik yuritish subyektlarida ishlab chiqarilayotgan homashyo va yarim tayyor mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va qadoqlash, shuningdek, turli yo'nalishda ta'minot va xizmat ko'rsatish sohalari faoliyatini tashkil etgan holda, o'z daromadini qo'shimcha moliyaviy manbalar asosida barqaror ko'paytirishni ta'minlashga qaratilgan faoliyati ham hisoblanadi.

Yana bir masalani ta'kidlashni xohlardik. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari bugungi kunda o'ylab topilgan emas balki, uzoq tarixga ega.

Ko'p tarmoqli ishlab chiqarishni tashkil qilishdagi muhim shartlardan biri bu - ***har qanday fermer xo'jaligi o'z daromadini (sof foyda) oshirish maqsadida o'z xohishiga ko'ra ixtiyoriy ravishda qo'shimcha tarmoqlarni tashkil etgan holda ko'p tarmoqli fermer xo'jaligiga aylanishi mumkinligidir.*** Bu boradagi fermerning faoliyati to'liq ixtiyoriy va fermer xo'jaligining xususiy manfaatlariga bo'ysinishi lozim.

Qo'shimcha tarmoqlar faoliyatini yo'lga qo'yish asosida fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini joylarning o'zida ortiqcha nobudgarchiliklarga yo'l qo'ymasdan qayta ishlash, raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarib, ularni ichki va tashqi bozorlarga chiqarib hamda qishloqlarda qo'shimcha ish joylari yaratib, qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, hayot farovonligini yaxshilashga hissa qo'shadi. Bu ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish asosida jamiyat ko'radigan naf hisoblanadi.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida qo'shimcha tarmoq faoliyati hisobiga yetishtirilgan mahsulotlar fermer xo'jaliklarining ichki iste'moliga yo'naltirilishi va shuningdek bozorga chiqarilishi ham mumkin. Lekin, iqtisodiy jihatdan qo'shimcha tarmoq yuqori tovarlilik darajasiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu ko'p tarmoqli fermer xo'jaligini rivojlantirishda qo'yilgan maqsad va vazifalarga ham mos keladi.

2. 2. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligi va tahlili.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat oldida turgan iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishning asosiy omillaridan biri mehnat unumdorligini oshirish hamda ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini har tomonlama yuksaltirishga erishishdan iboratdir.

Ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirishda ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi va ishlab chiqarish munosabatlarining xarakteriga bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish faoliyatining natijalari mujassamlangan.

Fermerning mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar:

- 1) moddiy-texnika omilari (texnika jarayoni, tabiat resurslarining xarakteri, ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, avtomatlashtirish va boshqalar)
- 2) shaxsiy omillar, (xodimlarning ixtisosi, malakasi, tadbirkorligi)

3) ijtimoiy mehnatning qanday tashkil qilinganligini ko'rsatuvchi omillar (ixtisoslashtirish, kooperatsiyalashtirish, ishlab chiqarishni kombinatsiyalashtirish, korxonalarda mehnatni bozor sharoitlarida shakllantirish)

4) tabiiy omillar (ob-havo sharoiti, suv, issiqlik temperaturasi va boshqalar) guruhiga bo'lish mumkin.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirishda ishlab chiqarishni fan-texnika taraqqiyoti va ilg'or tajriba yutuqlarini hisobga olgan holda intensiv rivojlanadi. Fermer ishlab chiqarishining fond va energiya bilan qurollanish darajasining orta borishi natijasida mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan ish vaqti tejaladi, mehnat sarfi kamayib har bosh chorvadan olinadigan mahsulot miqdori, har gektar ekin maydonidan olinadigan hosil miqdori ortib, oqibatda mehnat unumdorligi oshadi. Fermer xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish omillaridan biri ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashga o'tishni tezlashtirishdir.

Tuproq unumdorligini muntazam oshira borish, ko'plab qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va sarflangan mehnat samaradorligini oshirishdir. Yerni muntazam ravishda mineral va organik o'g'it bilan o'g'itlash, sug'orilib dehqonchilik qilinadigan ekin maydonlarini kengaytirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yuqori hosil beradigan ekin navlari hamda hayvon zotlarini yaratish va ishlab chiqarishda keng ko'lamda foydalanish, fan-texnika va agrotexnika talablariga to'la rioya qilgan holda yerga ishlov berish va boshqa tadbirlar tuproq unumdorligi ortishiga, hosil ko'payishiga, mahsulot

sifati yaxshilanishiga va oqibatda mehnat unumdorligi ortishiga olib keladi.

Chorvachilikda mehnat unumdorligining ortishi ko'p jihatdan mustahkam ozuqa bazasi yaratish va hayvonlarni ilmiy ratsion asosida boqishni tashkil etishga bog'liqdir. Mehnat unumdorligini oshirishda mehnat intizomini mustahkamlash ham muhim rol o'ynaydi.

Mehnat intizomi buzilgan yerda ishlab chiqarishni yuksaltirish mumkin emas. Mehnat intizomini mustahkamlamasdan turib, kunlik ish meyorlari o'z muddatida bajarilmaydi. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha hukumat tomonidan qabul qilingan qonunlarga o'zgartirish kiritilib, yollanma ishchilarni jalb qilish va ularga mehnat qonunchiligi bo'yicha haq to'lash tashkil etiladi.

Fermer xo'jaligida mehnat intensivligini oshirish katta ahamiyatga ega bo'lib, uning natijasida mahsulot ishlab chiqarish jarayonida faqat jonli va buyumlashgan mehnatgina tejalib qolmasdan, sarflangan vaqt ham qisqaradi. Mehnat intensivligining o'sishi natijasida mahsulot ishlab chiqarish ko'payadi, ishlab chiqarish vositalaridan unumli foydalaniladi. Ish kunidan unumli foydalanishga erishish mehnatni ilmiy asosda meyorlashtirishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Mehnatni ilmiy asosda

meyorlashtirish va meyorlarni takomillashtirish faqat mehnat resurslaridan to'la va unumli foydalanilishga emas, balki asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

Fermer xo'jaligida mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish natijasida sarflanayotgan mehnatning unumdorligi oshishini ta'minlash mumkin. Buning uchun

fermerlar ixtiyoridagi barcha mashinalar, traktorlarning ishga yaroqliligini oshirish

hamda ulardan yil davomida foydalanishga erishishdan iborat. Fermerlarni ishlab chiqarish resurslari, moliyaviy resurslar bilan ta'minlash orqali mehnat unumdorligini oshirish hamda kadrlarning malakasini oshirib ularni joy-joyiga qo'yish hamda iqtisodiy siyosatni ommaga to'g'ri tushuntirish ham ijobiy rol o'ynaydi. Fermer xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish tabiiy sharoitlarga va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishga ham bog'liqdir.

Ekin maydonlarining optimallashtirilishi samarasida joriy yilda unumdorligi va hosildorligi past yerlar hisobidan paxta dalalari 30,5 ming gektarga qisqartirildi.

Paxtadan bo'shagan yerlarga ilg'or agrotexnologiyalarni joriy qilish asosida meva – sabzavot ekildi. Fermer xo'jaliklari soni 17.9 mingtaga ko'paydi va 101 mingtani tashkil etdi.

2016 – 2020 – yillarda meva – sabzavotlarni saqlash bo'yicha moddiy – texnik bazani mustahkamlash va rivojlantirish chora – tadbirlarini amalga oshirish doirasida 27.6 ming t meva – sabzavot mahsulotlarini saqlash uchun 57 yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va 250 t meva – sabzavot saqlanadigan 2 sovutish kamerasi modernizatsiya qilindi.

Qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarining tutgan o'rni

Yillar		2000	2015
Soni	mingta	43,8	101,1
Ekin maydondagi hissasi	%	16,7	85,2
O'rtacha yer uchastkasi	ga	14,4	36,1
Hissasi: Paxtada	%	18,3	99,6
G'allada	%	14,5	85,0
Pillada	%	15,3	98,2
Qishloq xo'jaligi Yalpi mahsulotidagi ulushi	%	5,5	33,1
Shu jumladan:	%	9,7	52,8

Malakatimiz qishloq xo'jaligida chuqur tarkibiy o'zgaishlar amalga oshirilmoqda. Murakkab ob – havo sharoitiga qaramasdan fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli 2015 yili mo'l hosil yetishtirildi - 7 million 500 ming tonnadan ziyod g'alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi. Qishloq xo'jaligining meva – sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur'atlarda rivojlandi. O'tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva yetishtirildi.

2015 – yilda qishloq xo'jalik korxonalarining qishloq xo'jalik yalpi mahsulotlaridagi ulushi.

Q/X korxonalari	Fermer xo'jaliklari	Dehqon xo'jaliklari
2,0 %	33,1 %	64,9 %
	Chorva mahsulotlari	
3,1 %	4,5 %	92,4 %

2016 – yilda 2015 – yilning 1 – yarmiga nisbatan:

YaIM hajmi	7,8%
Sanoat	6,7 %
Qishloq xo'jaligi	6,8 %
Chakana savdo aylanmasi	14,1%

Qishloq xo'jaligida 2016 –yilda meva – sabzavot yetishtirish 11,2 %, kartoshka 9,7 % oshdi.

Go'sht yetishtirish 24 %, sut 30 %, tuxum 42 %ga oshdi.

2016 –yil oxirida mamlakatimizda qoramollar soni - 12 million 165 ming, qo'y va echkilar soni – 19 million 565 ming, parrandalar soni – 65 million 785 mingni tashkil etdi.

2016 – yilda xorijdan 60 mingdan ziyod mahsuldrliqi yuqori bo'lgan qoramollar keltirildi.

2016 – yil chorvachilikda 3000 dan ziyod loyiha hayotga tadbiq etildi.

Yer qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi, shuning uchun ham qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari foydalaniladigan yer maydoni, ekin maydoni, ekin maydonlarining strukturasi va qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi, yem xashak ekinlarida esa gektaridan chiqadigan ozuqa birligi bilan o'lchanadi.

Chorvachilikning rivojlanishi va ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichi – chorva bosh soni, tarkibi, mahsuldorligi va yalpi mahsuloti bilan o'lchanadi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarga:

- 1) yalpi va tovar mahsulotining hajmi;
- 2) mehnat unumdorligi ko'rsatkichi;
- 3) mahsulot tannarxi;
- 4) yalpi va sof daromad;
- 5) rentabellik darajasi kabilar kiradi.

Yalpi mahsulot xo'jalikda yetishtiriladigan jami mahsulotni yoki uning ayrim ishlab chiqarish tarmog'ida yetishtirilgan mahsulotning umumiy hajmini aks ettiradi. Tovar mahsuloti yalpi mahsulotning sotish uchun mo'ljallangan qismidan iborat. Ishlab chiqarish samaradorligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri mehnat unumdorligidir, u har bir xodim yoki sarflangan mehnat birligi hisobiga olinadigan mahsulotni aks ettiradi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari ichida mahsulot tannarxi, foyda va rentabellik muhim o'rin egallaydi.

Mahsulot yetishtirish va uni sotish uchun pul shaklida ifodalangan hamma xarajatlar mahsulot tannarxini tashkil qiladi.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi samaradorligining ko‘rsatkichlari orasida asosiy va aylanma fondlarning samaradorlik darajasi ham muhim rol o‘ynaydi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining bir so‘mi hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi – fond samaradorligi darajasini belgilaydi.

Ixtisoslashtirish asosida qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini samaradorligini oshiradi. Bu esa yangi texnika va texnologiyadan samarali foydalanish, ish kuchinitarmoqlarga yil bo‘yi to‘g‘ri taqsimlash va tuproq iqlim sharoitlaridan unumliroq foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Qishloq xo‘jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirishda tabiiy va iqtisodiy omillar hisobga olinadi:

A) tabiiy faktorlarga tuproqning turi, unumdorligi, o‘ratcha harorat, yog‘ingarchilik miqdori,

joyning relbafi, dalalarning hajmi, ekinzorlar, yaylovlar va pichanzorlarning mavjudligi kiradi;

B) iqtisodiy omillarga ishlab chiqarishning shahar va sanoat markazlariga yaqinligi, texnika

taraqqiyoti, transport, yo‘l, aloqa va mehnat resurslari bilan ta‘minlanganligi, kapital mablag‘ sarflashni ko‘paytirish imkoniyatlari va aholining avloddan avlodga o‘tib kelayotgan shakllangan mehnat malakasi kiradi, ya‘ni har bir zonada o‘zi uchun an‘ana bo‘lib qolgan tarmoqlar, ekinlar, chorva turlari ixtisoslashtirishni belgilashda hisobga olinadi. Ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishda fan va ilg‘or

tajriba yutuqlarini joriy qilish uchun qulay sharoitlar yaratiladi, xarajatlarni ko'p miqdordi tejab qolishga erishiladi, ishlovchilar va mutaxassislar ham ixtisoslashadi. Natijada gektar birligi, chorva bosh soni hisobiga ko'proq mahsulot ishlab chiqiladi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini mamlakatning tabiiy iqtisodiy zonalariga qarab ilmiy jihatdan asoslangan holda to'g'ri joylashtirish, ixtisoslashtirish va konsentratsiyalashtirish zarur. Bu qishloq xo'jaligini yuksak sur'atlar bilan rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Hozirgi kunda fermer xo'jaliklarini ixtisoslashtirish ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

ba'zi xo'jaliklarida bir xil mahsulot ishlab chiqarilmoqda, bularga parandachilik va bo'rdoqichilik xo'jaliklari kiradi.

Ikkinchi xil xo'jaliklarida dehqonchilik va chorvachilikning bir qancha tarmoqlari rivojlanmoqda.

Tarmoqlar xo'jalikda tutgan iqtisodiy rolga qarab asosiy, qo'shimcha va yordamchi tarmoqlariga bo'linadi.

Dehqonchilik bilan chorvachilikning o'zaro mustahkam aloqada bo'lishi katta ahamiyatga ega, chunki biri birining qo'shimcha mahsuloti hisobiga ikkala tarmoq ham rivojlanadi. Bundan tashqari, ishda mavsumga bog'liqlik kamayib boradi, asosiy vositalardan unumli foydalaniladi, pul daromadi bir tekisda tushib turishi ta'minlanadi. Xo'jaliklarning katta kichikligini belgilashda bevosita ko'rsatkichlar: yalpi mahsulot va yalpi mahsulot qiymati, shuningdek bilvosita ko'rsatkichlar: ekin maydoning miqdori, strukturasi, chorvachilik xo'jaliklarida mollarning soni, bog'dorchilik

xo'jaliklarida meva turi va mevali daraxtlar soni kabilar hisobga olinadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarning hajmiga: xo'jalikning texnika bilan qurollanish darajasi, ishlab chiqarishni uyushtirish va uning texnologiyasi darajasi, kadrlarning malakasi, aholining joylashuvi, tabiiy sharoiti va boshqarilish tartibi kabilar ta'sir qiladi.

Fermer xo'jaliklari mol-mulkining shakllanish manbalari quyidagilar: xo'jalik a'zolarining pul va moddiy mablag'lari; mahsulot (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan, shuningdek, faoliyatining boshqa turlaridan olingan daromadlar; qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlar; kreditlar; yuridik va jismoniy shaxslarning beg'araz hayriya va boshqa badallari, ehsonlari; qonunlarda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Fermer xo'jaliklari zarur mol-mulkni va ishlab chiqarish vositalarini birjalarda, yarmarkalarda, bozorlarda yuridik va jismoniy shaxslardan sotib oladi.

Fermer xo'jaliklarining mol-mulki miqdori cheklanmagan bo'lib, u davlat tomonidan himoya qilinadi. Fermer xo'jaliklarining mol-mulki ularning a'zolariga umumiy, birgalikdagi mulk hisoblanadi.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining chorvachilikdagi salmog'i

	2014 yil yanvar- dekabr.	2013-y -2014-y yanvar-dekabriga nisbatan foizda
Go'sht (tirik vaznda)ming tn	1906,5	106,7
Shu jumladan		
Fermer xo'jaliklari	55,3	106,5
Dehqon xo'jaligi	1800,2	106,5
Qishloq xo'jalik korxonalari	51,0	107,0
Sut, ming tonna	8432,8	107,0
Shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklari	308.6	108,1
Dehqon xo'jaliklari	8064,6	106,9
Qishloq xo'jalik korxonalari	59,6	114,7
Tuxum, mln dona	4950,0	113,0
Shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklari	543,0	108,3
Dehqon xo'jaliklari	2726,9	113,6
Qishloq xo'jalik korxonalari	1680,1	113,7
Jun, tonna	34400	106,2
Shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklari	2797	124,9
Dehqon xo'jaliklari	29490	104,8
Qishloq xo'jalik korxonalari	2113	105,1
Qorako'l teri,ming dona	1063,4	100,3

Shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklari	52,6	103,0
Dehqon xo'jaliklari	831,9	103,8
Qishloq xo'jalik korxonalari	178,9	86,1

Hozirgi kunda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining chorvachilikdagi salmog'i ortib bormoqda. Lekin jadvaldan ko'rinib turibdiki, chorvachilik tarmog'ida dehqon xo'jaliklarining salmog'i yuqori.

2.3.Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish yo'llari.

Respublikamiz iqtisodiyotining tobora globallashuv jarayoniga qo'shilib borayotgani, jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan hodisalarning mamlakatimizga ta'sirini kuchaytirib bormoqda. Bu esa qishloq xo'jaligida ham chuqur islohotlar olib borishga undamoqda. Agrar sektorni modernizatsiyalash, erkinlashtirish va takomillashtirish bilan bog'liq qator davlat dasturlari va boshqa tadbirlar amalga oshirildi. **“O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktabrda bergan farmoni Respublikamizda fermer xo'jaliklari rolining yanada oshib borishida, fermerlik harakati samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ushbu farmonga muvofiq:

- qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish;

- fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlashni davom ettirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- yangi imtiyozlar berish, tadbirkorlar va ishbilarmonlarning manfaatlarini ishonchli himoya qilish masalalariga ham katta e'tibor qaratilgan.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasi mustahkam bo'lsa, ularda iqtisodiy jihatdan rivojlanish yuqori bo'ladi. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligining moddiy-texnika resurslari tabiiy va iqtisodiy resurslardan tashkil topadi. Tabiiy resurslar - yer, suv, o'rmon, chorva hayvonlari, issiklik hamda yog'ingarchilik miqdoridan tashkil topadi. Ularning asosiy qismi davlat tasarrufida bo'lib, korxonalarga, fuqarolarga foydalanish uchun beriladi. Fermer xo'jaligining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanishi, asosan, fan-texnika taraqqiyotiga bevosita bog'liq. Fan-texnika taraddiyotida - qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan barcha fanlarning rivojlanishi, taraqqiy topishi, bilimli, malakali kadrlar tayyorlanishi natijasida samarali yangi texnikalar yaratilishi, mavjudlari esa takomillashtirilishi nazarda tutiladi. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi uchun zarur bo'lgan qulay va samarali mashina, traktor, mexanizm, uskunalar yaratilishi, mavjudlarini takomillashtirish, serhosil, tezpishar ekin navlari, sermaxsul chorva zotlari, ilg'or texnologiyalarni yaratishdan iborat.

Respublikada fan-texnikaning taraqqiy etishi natijasida qishloq xo'jaligi uchun yangi, sifatli haydov, ishlov beruvchi traktorlar, paxta terish mashinalari, kimyo sanoatida polietilen quvurlar, plyonkalar ishlab chiqarilmoqda hamda yomg'irlatib, tuproq ostidan tomchilatib

sug'orish uchun yangi samarali texnikalar, ilg'or texnologiyalar joriy etilishini ta'minlamoqda. Fan-texnika taraqqiyoti yagona davlat siyosati asosida olib borilmoqda.

Fermer xo'jaligida ishlab chiqarishning intensiv texnologiyasi qo'llanilmoqda. Bularning hammasi ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga yordam beradi. Shu sababli kichik biznes yoki katta hajmdagi qishloq xo'jaligi korxonasini yangi texnologiyani joriy qilsa, iqtisodiy samaradorlikka ega bo'ladimi, yo'qmi shuni hisob-kitob qilish kerak. Agarda yangi texnologiyani ishlab chiqarishga joriy qilganda, iqtisodiy samaradorlikka erishsagina bunday texnologiyani tezda joriy qilish kerak. Aks holda, yangi texnologiyani joriy qilishdan hech qanday naf bo'lmaydi.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishning qo'shimcha tarmog'i quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'nalishida;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, tashish, saqlash va qayta ishlash yo'nalishlarida;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi xo'jalik sub'ektlariga agrotexnik, iqtisodiy, texnikaviy, zooveterinariya va boshqa sohalarda xizmatlar ko'rsatish yo'nalishlarida;
- yengil sanoat mahsulotlari, qurilish materiallari ishlab chiqarish yo'nalishlarida;
- aholiga savdo, transport, maishiy xizmat ko'rsatish sohasida tashkil etilishi mumkin.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini quyidagicha rivojlantirish mumkin:

- fermer xo'jaliklariga investitsiyalar jalb etish orqali,
- Innovatsion texnologiyalar olib kirish va zamonaviy mini texnologiyalarni qo'llash orqali;
- fermerlarga xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish orqali rivojlantirishga erishish mumkin.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish vositalariga sarflanadigan barcha mablag'lar investitsiyalat deyiladi. Investitsiyalar bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'shilgan kapitaldir. Kapital esa moddiylashmagan ya'ni ishlab chiqarish vositalariga aylangan investitsiyalardir.

Ular qishloq xo'jaligi korxonalarining moddiy – texnik bazasini mustahkamlab, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, kimyolashtirish, elektrlashtirish, avtomatlashtirish, irrigatsiya – melioratsiyalashtirish natijasida xarajatlarni kamaytirib yetishtiriladigan mahsulotlar hajmi ko'payishi va sifati yaxshilanishini, olinadigan daromad (foyda) summasi oshishini ta'minlaydi.

Investitsiyalar har qanday ijtimoiy – iqtisodiy formatsiyalarda amalga oshiriladi. Chunki ular davlatni, tarmoq, korxonalar va nihoyat aholining iqtisodiy negizini mustahkamlashga sarflanadi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida investitsiyalar sarflanishi obyektiv zaruriyati hisoblanadi.

Tarmoq moddiy – texnika bazasini mustahkam ravishda barpo etish va rivojlantirish yo'llaridan biri bu zamonaviy texnologiyalar, bino – inshootlar, barcha turdagi zarur texnikalar, qishloq xo'jaligi mexanizmlari, ichki irrigatsiya va melioratsiya inshootlari, serunum, tezpishar navlar, zotli, mahsuldor hayvonlar hamda aylanma vositalar va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash lozimdir.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining rivojlanishida lizingning tutgan o'рни ham ahamiyatlidir.

Bugungi kunda lizing faoliyati sohasi O'zbekistonda iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Lizing ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi o'rtasidagi o'ziga xos ko'prik bo'lib, bunda ishlab chiqaruvchi o'z ishlab chiqargan mahsulotini lizing orqali tezda sotish, iste'molchi korxona esa, lizing yordamida kam mablag' sarflash orqali yangi texnika olish va o'z mashina-traktor parkini jadal yangilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Lizing deganda, odatda, shartnoma muddati davomida mulkchilik huquqi ijaraga beruvchida saqlanib qoladigan, ijaraga beruvchi tomonidan ijaraga oluvchi uchun, ishlab chiqarishda foydalanish maqsadida xarid qilingan mashina va uskunalarning uzoq muddatli ijarasi tushuniladi.

Hozirgi vaqtda respublikamiz lizing bozorida jami 87 ta korxona va tashkilot lizing faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lib, shundan 46 tasini ixtisoslashgan lizing kompaniyalari, 23 tasini tijorat banklari va 18 tasini boshqa korxonalar va kichik moliyaviy muassasalar tashkil etadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligiga texnika yetkazib berishda quyidagi 3 turdagi iqtisodiy mexanizmdan foydalanilmoqda:

- lizing kompaniyasi tomonidan qarz (kredit)ga olingan mablag' hisobidan lizing ob'ektini sotib olib, lizing oluvchiga yetkazib berilishi;
- tijorat banklari tomonidan Markaziy bankdan olingan kredit yoki o'z mablag'i hisobidan lizing ob'ektini sotib olib, lizing oluvchiga yetkazib berilishi;
- tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi korxonasiga texnika sotib olish uchun kredit ajratilishi.

“O'zqishloqxo'jalikmashlizing” kompaniyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'i hisobidan lizingga beriladigan Texnikalar narxiga Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 2 maydagi 126-sonli qaroriga asosan 8,14% chegirma qo'llanilishi belgilangan.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida chorvachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish asosan chorva mollarining naslini yaxshilash hisobiga mahsuldorligini oshirish. Buning uchun:

- chorvachilik tarmog'ining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- naslchilikni tubdan yaxshilash;
- tarmoqda servis, jumladan, zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish sifati va assortimentini oshirish;

- parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va pillachilik sohalarini rivojlantirish;
- chorva mollarini yuqumli kasalliklarga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish;
- ozuqa ekinlarini joylashtirishning maqbul darajalariga erishish, bunda lalmi yerlardan chorva ozuqasi yetishtirish uchun foydalanishni kengaytirish.

2015 - yil 858 ta fermer xo'jaligida 5285 gektar maydonda intensiv bog'lar, 565 ta fermer xo'jaligida 1848 gektar maydonda mahalliy bog'lar va 1315 ta fermer xo'jaligida 5124 gektar maydonda yangi tokzorlar, 288 ta fermer xo'jaligida 173 gektar maydonda issiqxonalar, 106 ta fermer xo'jaligida 174 gektar maydonda ko'chat yetishtirish va 8922 ta fermer xo'jaligida 28008 gektar maydonda sabzavotchilik tashkil etildi.

Shuningdek, 1947 ta fermer xo'jaligida qoramolchilik, 917 ta fermer xo'jaligida parrandachilik, 721 ta fermer xo'jaligida baliqchilik va 785 ta fermer xo'jaligida asalarichilik yo'nalishlaridagi, 48 ta fermer xo'jaligida go'shtni qayta ishlash, 89 ta fermer xo'jaligida sutni qayta ishlash va 105 ta fermer xo'jaligida meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, 19 ta fermer xo'jaligida qandolatchilik va 58 ta fermer xo'jaligida un va un mahsulotlarini qayta ishlash, 20 ta fermer xo'jaligida qurilish materiallari ishlab chiqarish, 82 ta fermer xo'jaligida muzlatgichli omborxonalar tashkil etish yo'nalishidagi loyihalar amalga oshirildi. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari doimiy

ravishda o'zlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohalarini rivojlantirish hisobiga o'z faoliyat turlarini kengaytirib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bugungi kunda ayrim fermer xo'jaliklari yetarlicha aylanma mablag'lar, zarur texnika va boshqa moddiy-texnik resurslarga ega emas. Bu qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligiga, shartnoma majburiyatlari bajarilishiga va fermer xo'jaliklarining rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, 2016 -yilda yer maydonlarini optimallashtirishdagi kamchiliklar Toshkent, Namangan, Jizzax, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida bu jarayon talab darajasida o'tkazilmagan.

2016 –yilda qishloq xo'jaligida ishlar yetarli darajada tashkil etilmagani va ayrim rahbarlarning, jumladan, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax va Buxoro viloyatlari sobiq hokimlarining shaxsiy mas'uliyatsizligi sababli bir qator tumanlar va fermer xo'jaliklarida kutilgan darajada paxta hosili olinmadi.

Kosonsoy, Angor, Muzrabot, Qiziriq, Sherobod, Quyichirchiq, Qo'shtepa tumanlarida paxta sotish bo'yicha shartnoma majburiyatlari 60-65 foiz darajasida qolib ketgan. Zarbdor, Paxtakor, Arnasoy, Mirzaobod, Xovos, Sardoba, Guliston, Chust va Bekobod tumanlarida

davlat zaxirasi uchun g'alla yetkazib berish majburiyatlari bajarilmagan.

Ana shu faktlarning har biri bo'yicha prinsipial va qat'iy baho berish zarur.

2017-yilda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, kompaniyalar va boshqa idoralar, shuningdek, barcha bo'g'indagi hokimliklar quyidagi strategik muhim vazifalarni amalga oshirishi zarur:

- ekin maydonlari va ekinlar tarkibini optimallashtirish,
- ilg'or agrotexnologiyalarni joriy etish va hosildorlikni oshirish, meva-sabzavot va uzum yetishtirishni ko'paytirish;
- fermer xo'jaliklarining moliyaviy-iqtisodiy holatini mustahkamlash.

Oxirgi 10-yil mobaynida mineral o'g'itlar, yoqilg'i-moylash materiallari va urug'lik narxining o'sishi bilan paxta xomashyosi va g'allani xarid qilish narxlari o'sishi o'rtasida keskin farq borligi kuzatilmoqda;

– o'tgan yillarda Moliya vazirligi va uning huzuridagi Jamg'arma rahbariyati tomonidan shakllantirilgan, agrotexnika tadbirlarini moliyalashtirishda ijobiy natija bermayotgan va mutlaqo chala tizimga barham berish zarur.

Agarki, qishloq xo‘jaligi mas’uliyatsizlarcha yondashuv asosida moliyalashtiriladigan bo‘lsa, davlat xaridi uchun mahsulotni qanday yetishtirish mumkin ?

2017 yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, Jamg‘arma tomonidan fermer xo‘jaliklariga 300 milliard so‘m mablag‘ to‘lab berilmagan. **Agar fermer davlat oldida o‘z majburiyatini bajargan bo‘lsa ham, davlat va uning ba’zi bir rahbar xodimlari bu masalaga befarq va bee’tibor munosabatda bo‘lmoqda**

– oxirgi yillarda agrosanoat kompleksida tashkil etilgan yangi boshqaruv organlari faoliyatidagi bir qator muammolarni bartaraf etish yuzasidan qat’iy choralar ko‘rish zarur.

Eng avvalo, «O‘zpaxtasanoateksport» kompaniyasi va uning tarkibiga kiruvchi «O‘zpaxtasanoat» , «O‘zpaxtaeksport» va «O‘zpaxtayog‘» aksiyadorlik jamiyatlari ushbu tarmoqlarni modernizatsiya qilish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish, jumladan, paxta xomashyosini qayta ishlash bo‘yicha markazlarni tashkil etish bo‘yicha ishlar o‘ta qoniqarsiz yo‘lga qo‘yilgan.

«O‘zbekoziqovqat-xolding» kompaniyasi meva-sabzavotni qayta ishlash darajasi 20 foizga ham yetmaydi. Yangi texnologiya va standartlar o‘ta sustkashlik bilan joriy etilmoqda. Qo‘shma korxonalarda ishlab chiqarish hajmi keskin pasaygan.«O‘zbekengilsanoat» aksiyadorlik jamiyati, «O‘zvinosanoat-xolding» va «O‘zbekcharmpoyabzali» uyushmalari faoliyatida zamonaviy yondashuv va yangiliklar sezilmayapti.

Aniq faktlar. Eksport tarkibida ip-kalavaning ulushi yuqoriligicha – 53 foiz darajasida qolmoqda. Aholining poyabzalga bo‘lgan ehtiyojini qondirish darajasi 41 foizni tashkil etadi. Uzum yetishtiradigan, vino va aroq mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ko‘plab korxonalar samarasiz ishlayapti.

Shuning uchun qishloq xo‘jaligida kichik biznes va xususiy tadirkorlarni qo‘llab quvvatlash va ularga moddiy ko‘mak berish va ishlab chiqarishni uzluksizligini va rabobatbardoshligini ta‘minlash zarur deb, o‘ylayman

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari”. T.: O‘zbekiston, 2009.
2. Prezident Islom Karimovning “2015 – yil ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 – yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim utuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi ma‘ruzasi”dan.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni “2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi”dan
4. X.K Mamarasulov, A.A.Tashmatov, “N.I.Djumabaeva Qishloqda biznes yuritishning moliyaviy – iqtisodiy tashkiliy jihatlarini”T:O‘zbekiston, 2013.
5. Yunusov.I.O, Sangirova.U.R “Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyatini baholash va biznes rejalashtirish” T:O‘zbekiston, 2015.
- 6.«O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi» jurnali, 2000 - 2003 yillardagi sonlari.
7. Xusanov R.X., Qosimov M. «Dexqon xo‘jaligini yuritishning ilmiy va amaliy asoslari» T.: CHo‘lpon, 2000.

8. CHoriyev Q., Berkinov B. «Dexqon va fermer xo'jaliklarini tashkil etish va yuritishning xuquqiy - me'yoriy asoslari», T.: SHarq, 2002.
9. Maxmadiyev U.M. «Dexqon (fermer) xo'jaligining iqtisodi va uni tashkil etish» O'quv qo'llanma. - T.: 1998.

Internet saytlari

1. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.uzreport.com – Axborot agentligi.
4. www.agro.uz – O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi.

